DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-47 Pages: 431-438

Oriental Journal of Philology



ABOUT THE UNKNOWN AUTHOR OF THE WORK 'NAZMI AQOID'

Abdurakhmon K. Latipov
PhD student
Department of Linguistics
Fergana State University
Email: *abdurahmonlatipov73@gmail.com*
Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: Imam Nasafi, Poet with the pen name Mashhur, Author of the work 'Nazmi aqoid', Turkish scholar Ahmet Sevgi, Turkish poem related to doctrine, Alisher Navoi.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article analyzes the poetic commentary "Nazmi aqoid" on Abu Hafs Umar an-Nasafi's work "Aqoid an-Nasafiya". There are opinions among scholars that this Turkic poem belongs to Alisher Navoi. The article examines the views of foreign and local scholars on this topic. During the research process, it was determined that in one of the manuscript copies of the work, there is a verse indicating that the author is Alisher Navoi. This work, which could potentially be authored by Alisher Navoi, awaits its researchers.

MUALLIFI NOMA'LUM "NAZMI AQOID" ASARI XUSUSIDA

Abduraxmon Q. Latipov
tayanch doktorant
Tilshunoslik kafedrasi
Farg'ona davlat universiteti
Email: abdurahmonlatipov73@gmail.com
O`zbekiston, Farg'ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Imom Nasafiy, Mashhur taxallusli shoir, "Nazmi aqoid" muallifi, turk olimi Ahmet Sevgi, aqidaga oid turkiy manzuma, Alisher Navoiy.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Hafs Umar an-Nasafiyning "Aqoid an-Nasafiya" asariga bitilgan nazmiy sharh "Nazmi aqoid" asari muallifi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Ilm ahli orasida bu turkiy manzuma Alisher Navoiyga tegishli degan qarashlar mavjud. Maqolada ushbu mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida asar

qo'lyozma nusxalaridan birida muallif Alisher Navoiy ekaniga dalolat qiluvchi misra mavjudligi aniqlandi. Muallifi Alisher Navoiy bo'lishi mumkin bo'lgan bu asar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

О ПРОИЗВЕДЕНИИ «НАЗМИ АКАИД» НЕИЗВЕСТНОГО АВТОРА

Абдурахмон К. Латипов
Базовый докторант
Кафедра языкознания
Ферганский государственный университет
Email: abdurahmonlatipov73@gmail.com
Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: имам Насафи, поэт, известный под псевдонимом Машхур, автор произведении “Назми акаид”, турецкий ученый Ахмет Севги, турецкое стихотворение, относящееся к акиде, Алишер Навои.

Аннотация: В данной статье анализируется информация о поэтическом комментарии к произведению Абу Хафса Умара ан-Насафи “Акаид ан-Насафия”, называемом “Назми акаид”. Среди ученых существует мнение, что этот турецкий стих принадлежит Алишеру Навои. В статье изучены мнения как зарубежных, так и местных ученых по данной теме. В процессе исследования в одной из рукописных версий произведения была обнаружена строка, подтверждающая, что автором является Алишер Навои. Это произведение, которое может принадлежать Алишеру Навои, ожидает своих исследователей.

Kirish. Musulmon sharq adabiyotining Qur’oni karim va hadisi sharifdan ta’sirlanishi natijasida mumtoz adabiyotda fiqhiy asarlarni nazmga solish hamda aqidaviy asarlarning nazmiy sharhlari vujudga keldi. XI-XII asrlarda yashab ijod qilgan Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiy” asariga “Nazmi aqoid” nomli turkiy tilda nazmiy sharh bitilgan bo‘lib, ilm ahli orasida bu asar Alisher Navoiyga tegishli degan qarashlar mavjud, ammo shoir o‘z asarlari ro‘yxatida ma’lumot bermagan. Ushbu asarda Islom aqidasiga oid g‘oyalar nazmiy ifodasini topgan.

Asosiy qism. Moturidiy ulamolaridan Imom Abu Hafs Umar ibn Muhammad Najmuddin an-Nasafiy o‘zining “Aqoid an-Nasafiya” nomli asari bilan bilvosita ustozi Imom Moturidiy ta’limotini keng yoyishga xizmat qildi. Hozirgi kunda “Aqoid an-Nasafiya” asarining qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida № 502/I, 2979/XII, 4070/V raqamlari ostida saqlanmoqda. Ushbu asar butun musulmon olamida asrlar osha to hozirgi kunga qadar mashhur bo‘lib, unga ko‘plab sharhlar bitilgan. Olmon tadqiqotchisi

Ulrix Rudolf: “Abu Hafs Umar ibn Muhammad Najmuddin an-Nasafiy “Aqoid an-Nasafiya” asarini Moturidiya ta’limotida yaratgan” (Norqobilov, 2022, p.1) – deb ta’kidlagan. U yaratgan “Aqoid an-Nasafiya” asari butun musulmon olamida asrlar osha to hozirgi kunga qadar mashhur bo‘lib, unga ko‘plab sharh va hoshiyalar yozilgan. Taftazoniyning “Sharh al-aqoid an-Nasafiy” asari eng ko‘p chop etilgan asarlar sirasiga kiradi. Qozonda ham ko‘p marotaba bu sharh chop etilgan. Olima R.Safiullinaning xabar berishicha: “Sharhi aqoid an-Nasafiy” tahminan 15 marotaba nashr etilgan. Tatar olimi J.Validiyning yozishicha, “Musulmon va tatar madrasalarida eng ommabop asar Taftazoniyning sharhi bilan keltirilgan “Aqoid an-Nasafiya”dir” (Norqobilov, 2022, p.1). Turk tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, “Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiya” asari Taftazoniy (vafoti 797/1395y.)ning “Sharh ul-aqoid an-Nasafiy” kitobi bilan islom olamida shuhrat qozongan” (Uludağ, 2010, p.55). Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Umar an-Nasafiyning mazkur “Aqoid an-Nasafiya” nomli asariga turkiyda “Nazmi aqoid” nomli nazmiy sharh bitilgan bo‘lib, asar Moturidiya aqidasi himoyasi uchun muhim vazifani ado etgan. Bu xulosaga kelishimizga manzumadagi quyidagi baytlar sabab bo‘ldi:

O‘tti nabiy marhalai foniydin,
Barcha sahoba, hamai tobiiyn…
Qolmadi yo‘l boshlar uchun rahnamo,
Bosh ko‘tarib yetmish ikki behayo…
Mu’tazila erdi birining boshi,
G‘illu g‘ash erdi ichi birla toshi…
Shayx Umar homii as’hobidin,
Ash’ariy va Moturidiy qavmidin.
Shar’ o‘lub erdi va tirguzdi ul,
Ruhi ravon jismig‘a kirguzdi ul.
Yetmish va ikki firqag‘a bo‘ldi harif,
Borchasig‘a berdi javobi latif…
Shayx daloyillarin aylab kitob,
Shubha yuzidin ko‘taribon niqob…
Qo‘ydi Aqoid ot anga ul zamon,
Bo‘lg‘on uchun anda aqoyid ayon…
Kim bu Aqoid so‘ziga shak etar,
Dini va imoni o‘shal dam ketar.
Har kishini bo‘lsa din ila oshi,
Nazmi aqoidni qilur yo‘ldoshi. (Nazmi aqoid, 1907, pp. 11-12).

Asarning “Sababi Nazmi aqoid” bobida keltirilgan yuqoridagi baytdagi ma’lumotlardan anglashiladiki, Imom Moruridiyning bilvosita shogirdi Umar an-Nasafiy (1067-1142) mu’taziliylar kabi dindagi tafriqachilarga qarshi sof islomiy aqida himoyasida “Aqoid” nomli asar yaratdi. Muallif bu ma’lumot ortidan o‘zi yaratgan “Nazmi aqoid” asari haqida so‘z yuritishi uning Umar an-Nasafiyga muxlis ekanidan va “Nazmi aqoid” asari “Aqoid an-Nasafiya” asarning sharhi ekaniga dalil bo‘la oladi. Shuningdek, “Aqoid an-Nasafiya” asari (Mansur, 2006, p. 20) o‘rganilganda “Nazmi aqoid” asarida sharhlangan arabiy matn bilan aynan bir xil ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Hozirgi kunda “Nazmi aqoid” asarining O‘zR FA ShI asosiy fondida bir necha nusxalari saqlanmoqda:

1. 1242/1827-yilda kitobat qilingan 9209/I raqamli qo‘lyozma nusxasi
2. 1282/1865-1866-yilda ko‘chirilgan 13285 raqamli qo‘lyozma nusxasi
3. 1285/1868-yilda ko‘chirilgan 11946/II raqamli qo‘lyozma nusxasi
4. 1287/1870-yilda ko‘chirilgan 12344 ashyo raqamli qo‘lyozma nusxasi

Shuningdek, O‘zR FA ShI Hamid Sulaymon fondida asarning Maqsudjon Shoshiy tomonidan kitobat qilingan toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Ushbu toshbosmalarning barchasi 1325/1907-yilda bosmadan chiqqan. Olima O.Madaliyeva mazkur qo‘lyozmalardan 11946-ashyo raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma kotibigina mazkur asar muallifi Alisher Navoiy deb berganligini ta’kidlaydi. Keyinchalik mana shu qo‘lyozma asosida nashr qilingan toshbosma nusxalarda ham asar muallifi Navoiy deb qayd etilgan, degan fikrni ilgari suradi (Madaliyeva, 2022, p. 207).

Natijalar va muhokama. “Nazmi aqoid” asarining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 11946-raqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasini o‘rganish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, ushbu kulliyot 391 varaq, ya’ni yetti yuz sakson ikki betdan iborat bo‘lib, unda to‘rtta asar jamlangan:

1. Xamsa asari (tartib bilan “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlari joylashgan)
2. “Nazmi aqoid” asari
3. “Lison ut-tayr” asari
4. “Mahbub ul-qulub” asari

“Nazmi aqoid” asari ushbu kulliyotda “Xamsa” asaridan so‘ng kelib, majmuaning 303-317 varaqlarini band etgan, ya’ni hajman 29 bet, 15 varaqdan iborat, har bir varaqqa to‘rt ustundan nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo‘lib, 1040 baytdan iborat. Asar har biri alohida mavzu bilan ajralib turuvchi 109 ta manzumani o‘z ichiga olgan. Toshbosma asar esa 70 sahifadan va 1036 baytdan iborat bo‘lib, kotib Maqsudjon Shoshiy tomonidan nasta’liq xat turida

ko‘chirilgan. Qo‘lyozma asarning oxirgi 317-varag‘ida kotib haqida: “Shahrisabziyi g‘arib etib tahrir Yunusi mustamand faqiri haqir” degan ma’lumot berilgan bo‘lib, asarning kotib Yunus Shahrisabziy tomonidan ko‘chirilganini anglatadi. Asarning hoshiyalarida qo‘shimcha ma’lumot mavjud emas. Kotib tomonidan muhr qo‘yilmagan. Qo‘lyozmaning 316-varag‘idagi quyidagi ikki bayt 1907-yildagi toshbosma nusxalarida uchramaydi:

Omi bashar omi malakdin sharif,
Toatu taqvo bila bo‘lg‘ay latif.
Bu ulamo birla erur avliyo,
O‘zgalari toyifai chahorpo (Nazmi aqoid, 1907, p. 6).

1868-yilda kitobat qilingan 11946/II raqamli qo‘lyozma matn bilan 1907-yildagi toshbosmani solishtirganimizda aynan shu nusxaning toshbosma matni uchun asos bo‘lgani aniqlandi. Asarning toshbosma nusxasidagi kolofonida Alisher Navoiyga nisbat berilishi ham shundan. Sababi, asar qo‘lyozmalarining faqat 11946 raqamli nusxasi kolofonidagina muallif Alisher Navoiy deb berilgan. Demak, 1868-yilda ko‘chirilgan 11946/II raqamli qo‘lyozma va 1907-yildagi toshbosma nusxalaridagina asar muallifi Alisher Navoiy deb ko‘rsatilgan.

Biroq o‘zining har bir, hattoki, hali yozilmagan, lekin yozishni rejalashtirib qo‘ygan asarlari haqida ham ma’lumot qoldirgan shoir hech bir o‘rinda “Nazmi aqoid”ga to‘xtalib o‘tmagan. Shu sababli ushbu manzumaning Alisher Navoiyga tegishli ekanligini inkor qiluvchilar ham bor. Jumladan, afg‘onistonlik olim Muhammad Yoqub Vohidiy ham “Nazmi aqoid” asari Alisher Navoiyga tegishli emas, deb hisoblaydi. Bu haqda o‘zbek olimi O.Usmonov “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnalining 1967-yil 8-soni 35-sahifasida e’lon qilingan “Afg‘on olimlari Navoiy haqida” nomli maqolasida quyidagi ma’lumotni keltirib o‘tadi: “Ba’zi manbalarda bu asarning ham Navoiy qalamiga mansubligi ta’kidlanadi. Vohidiy fikricha esa, bu asar oxirida aniq qilib, “bu asar “Mashhur” taxallusli shoirga mansub” deb yozib qo‘yilgandir” (Usmonov, 1967, pp. 33-37). Lekin olim S.Oqilov o‘z maqolalaridan birida: “Aqida ilmiga oid manzuma shaklida ijod qilgan yana bir qancha tarixiy shaxslarni misol keltirishimiz mumkin. Masalan, mashhur turkiy shoir Alisher Navoiy ham Abu Hafs Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiya” asariga sharh sifatida “Nazm-ul aqoid” nomli kichik she’riy asar yozgan. “Nazm-ul aqoid”ning 1863-yilda ko‘chirilgan bir qo‘lyozma nusxasi O‘zbekistondagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 11946/II raqami ostida saqlanmoqda”, – deya ma’lumot berib, shoir Alisher Navoiyni asar muallifi sifatida taqdim etadi (Oqilov, 2018, pp. 387-392). Bunday fikrga kelishiga nima turtki bo‘lganligi haqida esa izoh bermaydi.

Bu asar haqida nisbatan to‘liqroq ma’lumotni turk olimi professor doktor Ahmet Sevgining “Nesefî akâidi”nin Ali Şîr Nevâî’ye isnat edilen manzûm bir tercümesi” (“Nasafiy aqoidi”ning Alisher Navoiyga nisbat berilgan nazmiy bir tarjimasi”) maqolasida ko‘rish mumkin

(Sevgi, 2014, pp. 169-175). Olim “Nazmi aqoid”ni Alisher Navoiy qalamiga mansub deb hisoblaydi va buning uchun bir qator dalillar keltirib oʻtadi. Ahmet Sevgi “Nazmi aqoid” uslub jihatidan Alisher Navoiy asarlariga yaqin turishini ta’kidlaydi va oʻz fikrining dalili sifatida asarning “Sababi nazmi aqoid” bobi bilan shoirning “Sirojul muslimiyn” asaridagi “Kitob nazmining sababi” boblarini oʻzaro qiyoslaydi. Shuningdek, “Sababi nazmi aqoid” bobida Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlariga ishora qilingan baytlar ham uchrashi uning shoir qalamiga mansubligini tasdiqlovchi dalillardan biri sifatida e’tirof etadi: “Ayrıca “Nazm-ı Akâid”in “Sebeb-i Nazm-ı Akâyid” bölümünde geçen ifadeler Ali Şîr Nevâî’nin mesnevîlerine (Sedd-i İskenderî ve Seb‘a-i Seyyâr) telmihtirki bu da “Nazm-ı Akâid”in, Ali Şîr Nevâî’ye ait olabileceğinin bir başka delili sayılabilir” (Sevgi, 2014, pp. 169-175). Asar xotimasida muallif haqida keltirilgan uch baytni esa unga boshqalar tomonidan ilova qilingan deb hisoblaydi. Biz olimning bu fikrlari haqiqatga qanchalik yaqinligini aniqlash uchun “Nazmi aqoid”ning 1325/1907 yilda Toshkentda koʻchirilgan 1036 baytli toshbosma nusxasi matnini oʻrganib chiqdik. Asar matnini oʻrganish jarayonida, eng avvalo, unga kimdir tomonidan ilova qilingan boʻlishi mumkin deb hisoblangan uch baytga e’tibor qaratdik. Darhaqiqat, asar xotimasida uning muallifi haqida ma’lumot beruvchi quyidagi misralar keltiriladi:

“Maxzanul asror” dedi Ganjaviy,
“Matla’ul anvor” dedi Dehlaviy.
“Tuhfatul ahror” dedi qutbi Jom,
“Hayratul abror” Amiri kirom.
“Nazmi aqoyid” dedi Mashhuri mast
Kim, anga taqdir edi roʻzi alast (Nazmi aqoid, 1907, p. 70).

Agar yuqoridagi baytlar unga keyinroq ilova qilingan deb hisoblasak, Ahmet Sevgining fikrlariga qoʻshilish mumkin. Darhaqiqat, mantiqan olib qaralganda oxirgi uch bayt Alisher Navoiyga tegishli boʻlganida unda, birinchidan, “Hayratul abror” eslatilmagan, ikkinchidan, “Amiri kirom” iborasi ishlatilmagan boʻlar edi, chunki oʻta kamtar, kibr va manmanlikdan qochgan shoir birorta asarida oʻzining amir ekanligiga ishora qilib ham oʻtmagan. Shu jihatdan olib qaralganda, afgʻon olimining fikri haqiqatga yaqinroq ekanligi va asar xotimasidagi “Mashhuri mast” iborasi muallifga tegishli taxallus yoki uning ismi boʻlishi ham mumkinligi ma’lum boʻladi. Qolaversa, “Mashhur” taxallusi asarning boshqa oʻrinlarida ham uchrashi bu fikrning haqiqatga yaqinligini yana bir karra tasdiqlaydi:

Xat kibi Mashhur otim oʻchmasun,
Men bu jahondin koʻchub, ul koʻchmasun (Nazmi aqoid, 1907, p. 11).
Toki oʻqusa hama ahli funun,
Rahmat yuborgusidur Mashhur uchun (Nazmi aqoid, 1907, p. 13).

Lekin xulosa qilishga shoshmasdan aytish mumkinki, Mashhur taxallusi ijod kishisi odob-axloq me’yorlariga nomuvofiq va nokamtarlik bo‘lar edi. O.Madaliyeva o‘z tadqiqoti jarayonida “Tazkirai Qayumiy” va boshqa bir qancha kataloglar qarab chiqilgani, ammo ularda “Nazm al-aqoid” asari hamda Mashhur taxallusli shoir haqida nimadir zikr qilinganini ko‘rmagan. Mashhur so‘zining ism yoki taxallus ekanligiga shubha bildirgan (Madaliyeva, 2017, pp. 19-24).

Sharqshunos olim Abdulla Nosirov esa asarning 9209/I, 11946-ashyo raqamli qo‘lyozmalari va 9950-ashyo raqamli toshbosmasida izohlar yozib qoldirgan. Olim mazkur asar muallifi Navoiy ekanini rad etadi va fikrining isboti sifatida yuqorida zikr qilib o‘tilgan asarning so‘nggi uch baytini keltiradi. Bundan tashqari A.Nosirov Navoiy aqida ilmiga bag‘ishlab, “Siroj ul-muslimin” nomli asar yozganini ta’kidlaydi. Lekin olimning keyingi fikriga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. “Siroj ul-muslimin” asarida faqat 26 bayt aqidaga oid bo‘lib, fiqhiy masalalar bayoniga esa 116 bayt bag‘ishlangan, “Nazmi aqoid”da esa faqat aqidaviy masalalar bayon qilingan, fiqhiy masalalar asarda o‘rin olmagan. Ammo ta’kidlash joizki, Navoiy asarlari ro‘yxati keltirilgan bir qancha manbalar – “Muhokamat ul-lug‘atayn” (Alisher Navoiy), “Makorim ul-axloq” (G‘iyosiddin Xondamir) va “Abushqa” lug‘atida ham shoirning “Nazmi aqoid” nomli asar yozgani haqida ma’lumot berilmagan. Asar qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish jarayonida O‘zR FA ShI asosiy fondida 9209/I raqam ostida saqlanayotgan 1827-yilgi nusxaning 3-varoq, 2-sahifa, 1-qatorida quyidagi misra mavjudligi aniqlandi va bu ma’lumot “Nazmi aqoid” asarining Alisher Navoiy qalamiga mansubligini inkor etmaslikka chorlaydi:

San nedan etmassan ibodat anga,
Ayla, Navoiy, san itoat anga (Nazmi aqoid, 1827, p. 3).

Bu misra boshqa nusxalarda quyidagi tarzda kelgan:

Sen deb emas, sinki ibodat anga,
Banda bo‘lub o‘zni itoat anga (Nazmi aqoid, 1907, p. 5).

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abu Hafs Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiya” asari Islom olamidagi eng mashhur risolalardan bo‘lib, unga turli tillarda, jumladan, turkiy tilda ham sharhlar, tarjimalar yozilgan. Biz yuqorida ko‘rib chiqqan “Nazmi aqoid” asari ham shular jumlasidandir. Muallifi Alisher Navoiy bo‘lishi mumkin bo‘lgan bu asar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxat:

1. Madaliyeva, O. (2022). A structural and comparative study of the manuscripts of Alisher Navoi's divans. Алишер Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи // Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. Retrieved from https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/6apBfA55MkzNv2N.pdf (in Uzbek)

2. Madaliyeva, O. (2017). A work attributed to Navoi. Navoiyga nisbat berilgan asar // Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIV ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to‘plami, Tashkent. (in Uzbek)

3. Mansur, A. (2006). Doctrinal texts. Aqoid matnlari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti. (in Uzbek)

4. Nazmi ideology. Lithography. (1907). Nazmi aqoid. Toshbosma. – O‘zbekiston FA SHI Hamid Sulaymon fondi. Inv. № 9950. (in Uzbek)

5. Nazmi ideology. Manuscript. (1827) Nazmi aqoid. Qo‘lyozma. – O‘zbekiston FA SHI Asosiy fondi. Inv. № 11946. (in Uzbek)

6. Norqobilov, M. (2022). The history and social necessity of writing Saduddin Taftazani's work Sharh al-aqeed. Sa’duddin Taftazoniy “Sharh al-aqoid” asarining yozilish tarixi va ijtimoiy zarurati. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Retrieved from https://www.bukhari.uz/?p=21293&lang=oz (in Uzbek)

7. Oqilov, S. (2018). The influence of Abul Mu'in al-Nasafi's "Bahrul Kalam" on Sirojiddin O'shi's "Bad'ul Amali". Abul Mu'in an-Nasafiyning “Bahrul Kalom” asarining Sirojiddin O‘shiyning “Bad'ul Amoliy” asariga ta'siri // Ali ibn Usmon al-O‘shiy xalqaro simpoziumi ilmiy maqolalari. Turkiya Diyonat fondi va O‘shMU teologiya fakul'teti. – 392 p. (in Uzbek)

8. Retrieved from https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/31/NamDU-ARM-13988-%D0%90%D2%9B%D0%BE%D0%B8%D0%B4_%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80%D0%B8.pdf

9. Sevgi, A. (2014). A verse translation of the “Nasafi creed” attributed to Ali Sher Nevai. Alisher Navoiyga nisbat berilgan “Nasafiy aqidasi”ning nazm tarjimasi. – Seljuk University Edebiyat Fakültesi Dergisi, (31). – 175 p. (in Turkish)

10. Retrieved from https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/151660

11. Uludağ, S. (2010). Theology of Kalam and Islamic creed. Kelam Teolojisi ve İslam İnancı – İstanbul: Dergah Yayınları. – 155 p. (in Turkish)

12. Usmonov, O. (1967). Afghan scholars about Navoi. Afg‘on olimlari Navoiy haqida // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. (8-son). – pp. 33-37.